



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalar misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayavitdinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнеснинг иқтисодий тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

**SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH BO‘YICHA
XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

**ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ НА
ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ**

**FOREIGN EXPERIENCE IN IMPROVING ECONOMIC EFFICIENCY AT INDUSTRIAL
ENTERPRISES AND THE POSSIBILITIES OF ITS APPLICATION**

Muradov Olmos Uktamovich

Toshkent davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annoatsiya

Mazkur maqolada sanoat korxonalarida, xususan qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning xorijiy tajribalari tizimli tahlil qilinadi. Tahlil markaziga mehnat unumdorligi, ko‘p omili unumdorlik, material sig‘imi, energiya sig‘imi, modernizatsiya, raqamlashtirish, texnologik yangilanish va moliyalashtirish mexanizmlari qo‘yilgan.

Xorijiy tajribalar asosida aniqlanishicha, yuqori samaradorlikka erishish faqat alohida uskunani yangilash bilan emas, balki butun ishlab chiqarish zanjiri bo‘ylab integrallashgan boshqaruv orqali ta‘minlanishi xulosa qilingan.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiy samaradorlik, qurilish materiallari sanoati, energiya tejamkorligi, material unumdorligi, mehnat unumdorligi, modernizatsiya, raqamlashtirish, xalqaro tajriba, ishlab chiqarish tannarxi, resurslardan samarali foydalanish.

В данной статье проводится системный анализ зарубежного опыта повышения экономической эффективности на промышленных предприятиях, в частности на предприятиях по производству строительных материалов. В центре анализа находятся производительность труда, многофакторная производительность, материалоемкость, энергоемкость, модернизация, цифровизация, технологическое обновление и механизмы финансирования. На основе зарубежного опыта сделан вывод о том, что достижение высокой эффективности обеспечивается не только обновлением отдельного оборудования, но и интегрированным управлением по всей производственной цепочке.

Ключевые слова: Экономическая эффективность, промышленность строительных материалов, энергосбережение, материальная производительность, производительность труда, модернизация, цифровизация, международный опыт, себестоимость продукции, эффективное использование ресурсов.

This article provides a systematic analysis of foreign experiences in improving economic efficiency at industrial enterprises, with particular reference to construction materials manufacturing enterprises. The analysis focuses on labor productivity, multifactor productivity, material intensity, energy intensity, modernization, digitalization, technological upgrading, and financing mechanisms. Based on international experience, it is concluded that high efficiency is achieved not only through the renewal of individual equipment, but also through integrated management across the entire production chain.

Keywords: Economic efficiency, construction materials industry, energy efficiency, material productivity, labor productivity, modernization, digitalization, international experience, production cost, efficient use of resources.

Qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiy samaradorligini oshirish masalasi bugungi kunda nafaqat mikroiqtisodiy, balki makroiqtisodiy ahamiyatga ham ega, chunki ishlab chiqarish samaradorligi investitsiya faolligi, infratuzilma rivoji, uy-joy qurilishi sur‘atlari va milliy raqobatbardoshlik bilan uzviy bog‘langan [2,3]. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, ishlab chiqarish sanoatining iqtisodiy o‘lishga ta’siri boshqa ko‘plab tarmoqlarga nisbatan kuchliroq bo‘lib, ishlab chiqarishning YaIMdagi ulushi oshishi aholi jon boshiga daromad o‘lishini tezlashtiradi; shuningdek, manufacturing sektori umumiy bandlikdagi ulushiga nisbatan ikki baravar ko‘proq unumdorlik o‘lishini ta’minlaydi [6]. XXE 2025-yilgi unumdorlik indikatorlari to‘plamida mehnat unumdorligi, investitsiyalar, firmalar o‘lchami bo‘yicha unumdorlik tafovutlari va ko‘p omili unumdorlikning iqtisodiy o‘lishdagi roli alohida ajratib ko‘rsatilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar qurilish materiallari sanoatini baholashda ham metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu yondashuvdan kelib chiqib, qurilish materiallari korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni quyidagi integral ko‘rsatkichlar tizimi orqali baholash maqsadga muvofiq: mahsulot birligi tannarxi, energiya xarajati ulushi, xomashyo yo‘qotish darajasi, mehnat unumdorligi, uskunalarning foydalanish koeffitsiyenti, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi va bir tonna mahsulotga to‘g‘ri keluvchi elektr hamda issiqlik sarfi.

Xorijiy amaliyot shuni ko‘rsatadiki, sanoat samaradorligini oshirish uchta asosiy yo‘nalishga tayanadi: texnologik yangilanish, operatsion boshqaruvni takomillashtirish va bozor-institutsional muhitni yaxshilash. Jahon banki sanoat raqobatbardoshligini firmalarning yangi investitsiyalarni jalb qilish va bozordagi ulushini oshirish qobiliyati sifatida izohlaydi, bunda hal qiluvchi omil aynan unumdorlikni oshirish hisoblanadi. Demak, qurilish mahsulotlari korxonalarida ham iqtisodiy samaradorlikni oshirishning tub omili — resurs birligidan ko‘proq qo‘shilgan qiymat yaratishdir.

IFCning xalqaro eng yaxshi amaliyotga bag‘ishlangan hisobotiga ko‘ra, rivojlanayotgan bozorlarda 2016-yilda jahon sement iste’molining 90 foizdan ortig‘i to‘plangan va umumiy iste’mol 4,1 milliard tonnani tashkil etgan [2]. Shu bilan birga, sement sanoati antropogen issiqxona gazlari emissiyasining kamida 5 foiziga sabab bo‘ladi, energiya bilan bog‘liq xarajatlar esa sektorning naqd xarajatlarida 30–40 foiz ulushga ega [2]. Mazkur ko‘rsatkichlar qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari uchun energiya samaradorligini oshirish nafaqat ekologik, balki bevosita moliyaviy natijaga ta’sir etuvchi ustuvor omil ekanini anglatadi.

Texnologik modernizatsiya va ishlab chiqarish unumdorligi. Xorijiy tajribada qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarning samaradorligi ko‘pincha uskuna almashtirishdan ko‘ra jarayon zanjirini butunlay optimallashtirish orqali oshiriladi. Masalan, vertikal valikli tegirmonlar, roller press va Horomill kabi texnologiyalar yakuniy maydalashda elektr sarfini kamaytirish bilan birga, mahsulot sifatining barqarorligini ham oshiradi. Energiya xarajatlari ishlab chiqarish tannarxining 20–40 foizini tashkil etishi haqidagi Energy Star ma’lumotlari shuni anglatadiki, maydalash va pech jarayonidagi kichik foizli tejash ham sof foydaga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Boshqaruv va institutsional mexanizmlar. Samaradorlikning xorijiy modelida texnika va texnologiya bilan bir qatorda boshqaruv sifati ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Jahon banki baholashlarida sanoat raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha loyihalarning cheklangan natijasi ko‘pincha unumdorlikni oshirishga qaratilgan choralar yetarlicha integratsiyalashtirmaganligi bilan izohlangan. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, qurilish materiallari korxonalarida alohida uskuna xaridi yoki subsidiya berishning o‘zi yetarli emas; ishlab chiqarish, logistika, texnik xizmat, sifat nazorati, xaridlar va moliyaviy monitoring yagona boshqaruv konturiga kiritilishi kerak.

Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasi korxonalari bo‘yicha Jahon banki tadqiqotida texnik samaradorlik, umumiy omil unumdorligi va mehnat unumdorligidagi past natijalar ko‘p hollarda yuqori birlik mehnat xarajatlari, investitsion muhitning zaifligi va kichik firmalar imkoniyatlarining cheklanganligi bilan bog‘langani ko‘rsatiladi. Bu xulosa O‘zbekiston sharoiti uchun ham dolzarb bo‘lib, ayniqsa qurilish materiallari sanoatida kichik va o‘rta korxonalar uchun imtiyozli modernizatsiya liniyalari, texnologik audit grantlari va energiya samaradorligini moliyalashtirish instrumentlarini joriy etish zarurligini asoslaydi. Moliyalashtirishning xorijiy modellari. IFC hisobotida energiya samaradorligi loyihalarini moliyalashtirish uchun bir necha amaliy biznes modellar keltirilgan: to‘g‘ridan-to‘g‘ri kreditlash, subordinatsiyalangan qarz, lizing, qisman kredit kafolatlari, energy performance contracting, public-private partnership va maxsus maqsadli

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

kompaniyalar. Xitoyning CHUEE dasturi, Chili tajribasi, Bangkok leasing modeli va Green for Growth Fund kabi misollar samaradorlikni oshirishda moliya instituti, uskunalar yetkazib beruvchi va ishlab chiqaruvchi korxona o‘rtasidagi risklarni bo‘lishish tamoyili muhimligini ko‘rsatadi.

1-jadval

Qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari faoliyati uchun bosqichma-bosqich model

Bosqich	Mazmuni	Kutiladigan iqtisodiy natija
1-bosqich	Texnologik va energetik audit, material oqimlari xaritasi, yo‘qotishlar diagnostikasi	Resurslar qayerda samarasiz sarflanayotganini aniqlash
2-bosqich	Tez qaytuvchi chora-tadbirlar: fan, motor, VSD, kompressor, issiqlik izolyatsiyasi, sizib kiruvchi havoni kamaytirish	Elektr va yoqilg‘i xarajatlarini qisqartirish, tannarxni pasaytirish
3-bosqich	Asosiy uskunalarni modernizatsiya qilish: pech, maydalash majmuasi, cooler, avtomatika	Uzoq muddatli yuqori unumdorlik va mahsulot sifatining barqarorlashuvi
4-bosqich	Raqamli monitoring, KPI, SCADA/MES integratsiyasi, predictive maintenance	To‘xtashlar kamayishi, quvvatdan foydalanish darajasi oshishi
5-bosqich	Yashil moliyalashtirish, lizing, kafolatli kredit, ESCO mexanizmlari	Modernizatsiya uchun moliyaviy barqarorlik va risklarning kamayishi

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari uchun ayniqsa quyidagi moliyaviy mexanizmlar mos keladi:

- Uskunalarni yangilash uchun lizing, chunki pech, maydalash va filtr tizimlari katta boshlang‘ich investitsiya talab qiladi.
- Kafolatli kredit liniyalari, chunki energiya tejash loyihalarining qaytim muddati o‘rtacha va uzoq bo‘lishi mumkin.
- Aralash moliyalashtirish, ya‘ni bank krediti + davlat subsidiyasi + korxona ulushi, chunki bu model riskni taqsimlaydi va modernizatsiyani tezlashtiradi.

Qurilish mahsulotlari korxonalari uchun qo‘llash imkoniyatlari.

Qurilish materiallari sanoatida xorijiy tajribalarni transfer qilishda bevosita ko‘chirish emas, balki moslashtirish tamoyili ustuvor bo‘lishi kerak.

2-jadval

Qurilish materiallari korxonalarida samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalarni statistik jihatdan umumlashtirish

Ko‘rsatkich	Qiymat	Mazmuni
Rivojlanayotgan bozorlardagi jahon sement iste‘moli ulushi	90% dan ortiq	Qurilish materiallari sanoatining asosiy o‘shish nuqtasi developing marketlarda ekanini ko‘rsatadi
Jahon sement iste‘moli hajmi (2016)	4,1 mlrd tonna	Tarmoqning global miqyosda yirikligini ifodalaydi
Sement sanoatining antropogen GHG emissiyasidagi ulushi	Kamida 5%	Energiya va ekologiya boshqaruvi strategik ahamiyatga ega
Energiya xarajatlarining naqd xarajatlardagi ulushi	30–40%	Energiya tejash bevosita foyda va tannarxga ta‘sir qiladi

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 6-son 2026 yil

Xomashyo tayyorlashdagi elektr sarfi	25–35 kWh/tonna, ayrim holatda 11 kWh/tonna	Elektr sig‘imini kamaytirishning katta rezervlari mavjud
Nam pechning issiqlik sarfi	5 860–6 280 MJ/ton klinker	Eskirgan texnologiyaning yuqori xarajati ekanini ko‘rsatadi
6 bosqichli zamonaviy quruq tizim issiqlik sarfi	2 930 MJdan kam	Ilg‘or modernizatsiyaning iqtisodiy samarasini bildiradi
Fanlar samaradorligi	82–84	Elektr sarfini kamaytiruvchi tezkor modernizatsiya yo‘nalishi
Manufacturingning unumdorlik o‘lishiga hissasi	Bandlik ulushiga nisbatan 2 baravar yuqori	Sanoatni modernizatsiya qilish makroiqtisodiy samara beradi
WBG industry-specific support loyihalari (2008–2014)	881 ta loyiha, 21,6 mlrd dollar	Xalqaro miqyosda sanoat raqobatbardoshligini qo‘llab-quvvatlash tajribasi kengligini ko‘rsatadi

Ushbu raqamlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari uchun iqtisodiy samaradorlikning asosiy zaxirasi uchta nuqtada to‘plangan: energiya sig‘imini pasaytirish, material unumdorligini oshirish va uskunalar ishlash rejimini barqarorlashtirish. Ayniqsa, yoqilg‘i va elektr energiyasi ulushi yuqori bo‘lgan korxonalarda har bir foizlik tejaliş sof moliyaviy natijada ko‘proq seziladi. O‘zbekiston va hududiy korxonalar uchun ilmiy-amaliy takliflar:

Qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari misolida xorijiy tajribadan foydalanish imkoniyatlarini baholashda quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni baholashning kompleks indikatorlar tizimini joriy etish, bunda an‘anaviy foyda va rentabellik ko‘rsatkichlari bilan birga energiya sig‘imi, material unumdorligi va texnik foydalanish koeffitsiyentlari ham majburiy KPI sifatida belgilanishi lozim.

2. Sement va energiya sig‘imi yuqori bo‘lgan boshqa qurilish materiallari korxonalarida texnologik auditni har yili o‘tkazish hamda audit natijasini investitsion dasturlar bilan bog‘lash zarur.

3. Modernizatsiya siyosatida birinchi navbatda tez qaytuvchi chora-tadbirlar — fanlar, motorlar, VSD, kompressorlar, issiqlik sizib chiqishini kamaytirish, avtomatik boshqaruv — tanlanishi maqsadga muvofiq.

4. Yirik modernizatsiya uchun davlat kafolatli kredit liniyalari, sanoat lizingi va yashil moliyalashtirish platformalari yo‘lga qo‘yilishi kerak.

5. Kichik va o‘rta qurilish materiallari korxonalari uchun klaster asosidagi umumiy laboratoriya, umumiy servis markazi va umumiy energiya audit markazlari tashkil etilishi samarali bo‘ladi, chunki bu usul miqyos iqtisodidan foydalanish imkonini beradi.

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning eng muhim manbalari texnologik modernizatsiya, resurs tejankor boshqaruv, raqamli monitoring va mos moliyalashtirish mexanizmlarining uyg‘unligidan iborat. Qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida, ayniqsa sement sanoatida, energiya xarajatlarining yuqori ulushi sababli energiya samaradorligi bo‘yicha chora-tadbirlar tannarxni pasaytirish, foydani oshirish va ekologik barqarorlikni kuchaytirishning eng tezkor yo‘li hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://www.oecd.org/en/publications/oecd-compendium-of-productivity-indicators-2025_b024d9e1-en/full-report.html
2. <http://documents.worldbank.org/curated/en/601861502958556115/>
3. https://www.oecd.org/en/publications/cement-technology-roadmap-carbon-emissions-reductions-up-to-2050_9789264088061-en.html